

Hunarmandchilik va amaliy san'at buyumlari yarmarkasi

2025 27 Fevral

Bugun, 27-fevral kuni, Uzbekistan Airways bosh ofisida milliy hunarmandchilik va amaliy san'at buyumlari yarmarkasi o'tkazildi.



Aviakompaniya xodimlari iste'dodli ustalar tomonidan yaratilgan suvenir va maishiy kulolchilik buyumlari, zamonaviy hamda an'anaviy uslubdagi qo'lda ishlangan zargarlik taqinchoqlari, milliy matolardan tikilgan kiyimlar, rasmlar va boshqa san'at asarlari mahsulotlarini sotib olish imkoniyatiga ega bo'ldilar.









